



## MUL'TIMEDIA VOSITALARINING IJTIMOIIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA TA'SIR ETUVCHI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Qo'qon Davlat universiteti o'qituvchisi  
**Raximova Feruza Najmiddinovna.**  
**Yuldasheva Maloxat Erkinovna**

**Annotatsiya:** Maqolada Multimedia vositalarining ijtimoiy-pedagogik faoliyatga ta'sir etuvchi pedagogik – psixologik omillari sifatida talaba shaxsining ijtimoiy rivojlanish sohasining barcha qarashlarini keltirib o'tish lozim intellektual ijtimoiy rivojlanish sohasida, talabning tafakkuri, aql sifati, bilish ko'nikmalari, fikrlash operatsiyalari hamda o'rganayotgan fan va fan oldi bilimi, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar tizimli yoritilgan.

**Kalit so'z:** Multimedia, vositalarining, faoliyat, ijtimoiylashuv, bilim.

Multimedia vositalarining ijtimoiy-pedagogik faoliyatga ta'sir etuvchi pedagogik – psixologik omillari sifatida talaba shaxsining ijtimoiy rivojlanish sohasining barcha qarashlarini keltirib o'tish lozim intellektual ijtimoiy rivojlanish sohasida, talabning tafakkuri, aql sifati, bilish ko'nikmalari, fikrlash operatsiyalari hamda o'rganayotgan fan va fan oldi bilimi, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar tizimini tashkil etadi; motivatsion ijtimoiy-hatti harakati sohasi, talabning butun hayoti davomida shakllanadigan ehtiyoj, motiv va maqsadlar majmuini qamrab olishi hamda talaba amaliy faoliyati motivlari shakllangan bo'lishi, o'z maqsadini qo'yishi va ularga erishish uchun o'zida kuch – g'ayrat topa olishi; emotsional hissiy-ijtimoiy rivojlanish soha tarkibiga emotsiyalar, his tuyg'ular, o'zini-o'zi baholash, emotsional-kognitiv bilimlari, o'z ehtiylarini qondirish eki qondirmaslik bilan bog'liq va bevosita kechinmalar shakli, ijobiy emotsiyalar orqali o'z ehtiylarni qondirishda, amaliy faoliyat maqsadiga muvaffaqiyatli erishishi, talaba ehtiylari va motivlariga aloqador borliq hodisalari ahamiyatini aks ettiruvchi uning barqaror emotsional munosabatlarining his tuyg'ular jamalanmasi sifatida ifodalash; irodaviy ijtimoiy rivojlanish sohasida, talaba o'z-o'zini guruh va jamodoshlari bilan amaliy faoliyatda ijtimoiy – madaniy tadbirlarda faol ishtirok etishga intilishi, o'quv jarayonida, ijtimoiy-madaniy 337 loyihalarda, tanlovlarda, o'z shaxsiy manfaatlari sohasiga bevosita taalluqli bo'lgan jamoatchilik topshiriqlarini bajarishda o'z irodasi va tashabbusi bilan o'rnak bo'la olishida; o'z-o'zini boshqarish sohasida, talab oliy ta'lim tashkilotida jamoat tashkilotlari (talabalar fan kulublari, yoshlar ittifoqi yig'ilishlari, hayriya tadbirlari) faoliyatida, volontyorlik harakati bilan o'z kreativijodiy imkoniyatlarini namoèn etishi bilan o'z-o'zini namoèn qilib borishlari bilan farqlanadi; Talabalarning ijtimoiy-madaniy faoliyati madaniyat va jamiyatning birligi sifatida ta'lim jaraèniga ijtimoiy-madaniy èndashishni nazarda tutadi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat jaraèni uning yordamida ta'limning yangi sub'ektlariga to'plangan tajriba va bilimlar, amalga oshadigan madaniyma'rifiy tadbirlar va madaniylashuv hamda ijtimoiylashuv

jarayonlarini, ya'ni, individning inson jamiyatiga integratsiyalashuvini, ijtimoiy rolni bajarish uchun zarur bo'lgan tajribani egallashni o'z ichiga oladi [1]. Madaniylashuv - tarbiya sub'ektining o'z xalqi madaniyatiga kirib borishi, ijtimoiylashuv esa individning jamiyatga, uning ijtimoiy va shaxs munosabatlariga kirib borish jaraenidir. Ijtimoiy-madaniy va mul'timedia vositalari asosida faoliyatiga oid mavjud ilmiy endashuvlarni nazariy tahlil qilish natijalariga asoslanib, mul'timedia vositalari asosida faoliyatini biz shaxsning atrof muhit bilan jadal intensiv ongli o'zaro faoliyati va ijtimoiy - madaniy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan relaksatsion-salomatlikni tiklash, madaniyma'rifiy va madaniy-ijodiy ehtiyojlar va qiziqishlarni qondirish jaraenida ijtimoiy ahamiyatli amallar harakatlar majmui sifatida tushunamiz. Mul'timedia vositalari asosida mohiyatini real harakatlar usullarida yo'llarida, o'zaro faoliyatning ba'zi turlari va ko'rinishlarida ifodalash mumkin deb ifodalaymiz. Xorij olimlaridan A.Mudrik o'z ilmiy qarashlarida o'zaro amaliy faoliyatning murakkab strukturaviy hodisa sifatidagi muloqotga bo'lgan ehtiëjga asoslanganligini ta'kidlaydi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda quyidagi atamalar qo'llaniladi: "ijtimoiy o'zaro faoliyat", "shaxslararo o'zaro faoliyat", "pedagogik o'zaro faoliyat". Shaxslararo o'zaro faoliyat ko'pincha "ikki yoki undan ortiq insonlarning ularning xulq-atvori, faoliyati, munosabatlari, o'zgarishini keltirib chiqaruvchi xususiy yoki ochiq, verbal yoki noverbal bo'lmagan tasodifiy yoki amalga oshiriladigan shaxsiy aloqasi deb tushuniladi. Mul'timedia vositalari asosida sohadagi o'zaro faoliyat ixtiëriy va tanlash imkoniyati asosida amalga oshiriladi [2]. Bunday o'zaro faoliyat ko'p jihatdan differentsiallashtirilgan, individuallashtirilgan va variativ bo'ladi, uning tarbiyaviy jihatdan samaradorligi unda qaysi shaxslarning ishtirok etishi, o'zlarini qay darajada shaxslar sifatida his etishi va o'zlari muloqot qiladigan har bir kishida shaxsni ko'rishi bilan belgilanadi. A. Mudrik faoliyat turlarini faoliyat bilan shug'ullanish darajasiga ko'ra tasniflashni taklif qildi. Mul'timedia vositalari asosida turli shakllarini o'rganishda, o'zaro faoliyatni qiziqishlarga ko'ra guruhlarda tashkil qilishga e'tibor berish kerak. Uyushgan guruhliy o'zaro faoliyatni ajratib turadigan asosiy narsa - bu bizni yaqinlashtiradigan, optimistik kayfiyatni yaratadigan maxsus, qulay, do'stona muhitni yaratishdir. Bunda, ko'rsatilgan faoliyat turlarining har birida o'ziga xos xususiyatlari, uni tashkil qilishning texnologik xususiyatlariga mavjud. Biroq, umuman olganda, mul'timedia vositalari asosida faoliyatini tashkil qilish har bir guruh a'zosining faoliyatini rejalashtirish va bashorat qilish, ularning bilish va ijodiy faoliyatini rivojlantirish, muayyan faoliyat turiga bo'lgan qiziqishlarini qondirish, ijodiy muloqot uchun sharoit yaratish, ijobiy jamoatchilik fikrini shakllantirish, o'zini boshqarish ko'nikmalarini tarbiyalash va boshqalarda quriladi. Guruhliy mul'timedia vositalari asosida faoliyatini tashkil etish jaraenining markazida guruh a'zolarini turli faoliyat turlariga: bilish, qadriyatli-kommunikativ, mehnat, o'yin va boshqa faoliyat turlariga qo'shish kabi maqsad ustanovkasi qo'yiladi. Tashkil qilingan uyushgan mul'timedia vositalari asosida faoliyatini o'zaro faoliyatning mustaqil turi sifatida farqlovchi bir qator ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Bu parametrlarga quyidagilar kiradi: maqsadning belgilanganligi, predmetlilik, kommunikativ protsessuallik, mas'uliyatli bog'liqlik munosabatlari, unumdorlik va ijobiy natija berish, samaradorlik. Maqsadning belgilanganligi - faoliyatning barcha ishtirokchilarining faol o'zaro faoliyati natijasida ilgari suriladigan, muhokama

qilinadigan va qabul qilinadigan ijtimoiy maqbul va shu bilan birga shaxsan ahamiyatli maqsadlar mavjudligini nazarda tutadi [3]. Predmetlilik - bu o'zlashtirilishi lozim bo'lgan va yaratilishi maqsadida o'zaro guruhiy faoliyat amalga oshiriladigan qadriyatlardir. Kommunikativ protsessuallik kelajakdagi ishni rejalashtirish, maqsadga erishish uchun eng maqbul yo'l va vositalarni tanlash, faoliyat ishtirokchilari o'rtasida rol va majburiyatlarni taqsimlashda, faoliyatni bevosita amalga oshirishda, faoliyat natijalarini umumlashtirish va tahlil qilishda ishtirokchilarning verbal va noverbal bo'lmagan o'zaro faoliyatlarini nazarda tutadi (taqozo etadi). Mas'uliyatli bog'liqlik munosabatlari - birgalikdalikni, ya'ni hamkorlarning faoliyat jaraenida sa'yharakatlarini birlashtirishni taqozo etadigan, va bir vaqtning o'zida - sa'yharakatlarni faoliyatni tashkil qilishning mazmuni va shakliga muvofiq differentsiatsiya qilish tabaqalashtirishni taqozo etadigan zaruriyat va qo'yilgan maqsadlarga erishish istagi tufayli bo'sh vaqt hordiq chiqarish ishtirokchilari o'rtasidagi uzaro aloqadir. Mul'timedia vositalari asosida mahsuldorligi o'zaro faoliyat natijasida jamoaviy qadriyatlarni ishlab chiqish qilish va rivojlantirishni ifodalaydi. Mul'timedia vositalari asosida faoliyatining ijobiy natija berish jihati faoliyat sub'ektining olamga va olam bilan, o'ziga va o'zi bilan bo'lgan munosabatlarni rivojlantirishdan, faol, ijodiy rivojlangan shaxsni shakllantirishdan iborat. Mul'timedia vositalari asosida - inson shaxsini ijtimoiylashtirish maqsadida o'ziga xos va maxsus tashkil etilgan va boshqariladigan faoliyat turini ifodalaydi. Mul'timedia vositalari asosida ijtimoiy tarbiya vositasi sifatida bir qator potentsiallarga ega [4]. Birinchidan, u ijtimoiy faollik, kommunikativlilik, tashkil qilinganlik, harakatlanuvchanlik, kreativlik kabi ijtimoiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi. Ijtimoiy ahamiyatli shaxs sifatlari ijtimoiylashuv jarayonida insonga tabiat tomonidan berilmagan va uning genetik xususiyati yoki o'ziga xos sifati bo'lmagan xislatlar sifatida shakllanadi. Ijtimoiy ahamiyatli shaxs sifatlari talabning hatti-harakati va amallarida, uning boshqa kishilarga munosabatida namoyon bo'ladi. Mul'timedia vositalari asosida jarayonida talaba shaxsining ijtimoiy ahamiyatli fazilatlarini shakllantirishning mohiyati boshqaruv muammolarini hal qilishda nostandart endashuvlarni topishga, g'oyalarni ishlab chiqarishga, o'z faoliyatini rejalashtirishga, o'rab turgan (atrofdagi) voqelikni o'z ehtiyojlari, qarashlari va maqsadlariga muvofiq o'zgartirishga qaratishdan iborat. Ikkinchidan, mul'timedia vositalari faoliyati talabalarni turli yosh toifalari, turli ijtimoiy maqomlarga ega bo'lgan insonlar bilan o'zaro faoliyatga tayèrlashga yordam beradi [5]. Mul'timedia vositalari asosida 339 talabalarga turli yoshdagi insonlar, turli kasblarda (poliprofessional) muloqot bilan shug'ullanish imkonini beradi, va shu bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojni qondiradi, kommunikativ kompetentlikni rivojlantiradi. Odamlar bilan samarali o'zaro faoliyat insonparvarlik va demokratik qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, insonning yosh xususiyatlarini bilish, insonning boshqa madaniyat vakillari bilan aloqa (kontakt) qilish qobiliyatiga va kommunikativ kompetentlikka asoslanadi. Odamlar bilan samarali hamkorlik nafaqat muayyan kommunikativ bilim va ko'nikmalar majmuini (ijtimoiy sharoitlarda o'z yo'lini topa olish, harakat qila olish, boshqa odamlarning shaxsiy xususiyatlarini va hissiy holatini belgilay olish qobiliyati), balki kommunikatsiya qobiliyatining shakllanganligini ham o'z ichiga oladi. Uchinchidan mul'timedia vositalari asosida talabaga interfaol o'zaro faoliyatda, ijtimoiy muhitda xulq-atvor va

faoliyatni takomillashtirish tajriba orttirish imkoniyatini beradi. Talabalarda o‘zaro faoliyat vaziyatlarini tartibga solish, tahlil qilish, bashorat qilish va o‘zaro faoliyatda o‘z ishtiroklarini rejalashtira olish malakasi shakllanadi. Interfaol o‘zaro faoliyatning bir qismi sifatida animatsiya faoliyati ijtimoiy-madaniy xarakterga ega bo‘lib, atrofdagi voqelikni o‘zgartirishga yordam beradi. Mul'timedia vositalari asosida, kirish davomida talabalar shaxsiy va kasbiy sifatlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi turli guruhlarga a'zo bo'ladilar. Mul'timedia vositalari asosida talabalar amaliy faoliyatining kasbiy shakllanishi masalalari olimlar R.Bogoudinova, D.Genkin, A.Jarkov, T.Kiseleva, A.Konovich, Yu.Krasil'nikov, B.Lixachev, V. Novatorovlar o‘z tadqiqotlarida to‘xtalib o‘tgan. Olimlar ijtimoiy madaniy vaziyatni, mul'timedia vositalari asosida tarbiyaviy potentsialini samarali qo‘llashga bo‘lgan kuchli ijtimoiy talabni hisobga olib, ushbu kasb mutahassislarini oliy ta'lim doirasida ham tayèrlashga e'tiborni kuchaytirish haqida so‘z yuritish haqlidir. Mul'timedia vositalari asosida talabalarni ijtimoiy tarbiyalashning samaradorligini oshirish maqsadida, oliy ta'lim muassasasining talabalari va o‘qituvchilarining faol ishtirokida, talabalarda pedagogik mul'timedia vositalari asosida malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirish uchun pedagogik dasturlar asosida amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu dastur sinfdan tashqari ijtimoiy-madaniy va mul'timedia vositalari asosida, jaraènida shaxsiy sifatlar, kasbiy bilimlar, malakalar va munosabatlarni shakllantirishning pedagogik tizimidan iboratdir. ADABIYOTLAR:

1 Najmiddinova, Rahimova Feruza. "THE DESCRIPTION OF MULTIMEDIA VOCITAS AS AN INTEGRATIVE UNIT FOR IMPROVING THE SOCIAL PEDAGOGICAL ACTIVITY OF STUDENTS." American Journal of Interdisciplinary Research and Development 15 (2023): 265-267.

2 Рахимова, Феруза. "Multimedia vositalarining ijtimoiy pedagogik faoliyatga ta'sir etuvchi omillari." Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире 1.4 (2022): 20-26.

3 Najmiddinova, Rahimova Feruza. "THE UNIQUE POWER OF IMPROVING THE SOCIAL PEDAGOGICAL ACTIVITY OF STUDENTS IN MULTIMEDIA VOCITAS."

4 Najmiddinova, Rahimova Feruza. "ADVANTAGES OF USING INTERACTIVE METHODS IN LESSONS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1370-1374.